

**KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB, OILA VA JAMIYAT
HAMKORLIGINING PEDAGOGIK AHAMIYATI**

Qodirova Nilufar Abdusattor qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](https://doi.org/10.0009-0004-0395-4843)

Annotatsiya: Insonning shaxs sifatida kamol topishi hamda uning kasb-hunarga xos bo'lgan tushunchalarini rivojlanishida jamiyat va undagi ijtimoiy muhit, voqea-hodisalar har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni kasbga to'g'ri yo'naltirish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorligini taminlash asosiy o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, shaxs, maktab, oila, jamiyat, o'qituvchi, qiziqish, qobilyat, ehtiyoj.

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛЫ,
СЕМЬИ И ОБЩЕСТВА В ПРОФОРИЕНТАЦИИ**

Кадилова Нилуфар Абдусаттор кизи

Докторант Наманганского государственного университета

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](https://doi.org/10.0009-0004-0395-4843)

Аннотация: Общество, его социальная среда и события оказывают всестороннее влияние на развитие личности и формирование профессиональных знаний. Обеспечение сотрудничества школы, семьи и общества играет ключевую роль в выборе студентами правильной карьеры..

Ключевые слова: профессия, человек, школа, семья, общество, учитель, интерес, способность, потребность.

**PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF SCHOOL, FAMILY AND
SOCIETY COOPERATION IN CAREER GUIDANCE**

Kadirova Nilufar Abdusattor qizi

PhD student at Namangan State University

E-mail: milion.1993@mail.ru

[0009-0004-0395-4843](https://doi.org/10.0009-0004-0395-4843)

Abstract: Society, its social environment, and events have a comprehensive impact on a person's development as a person and the development of their professional understanding. Ensuring the cooperation of school, family, and society plays a key role in guiding students to the right career.

Keywords: profession, individual, school, family, society, teacher, interest, ability, need.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi" asosiy organ hisoblanadi. Markaz O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi o'quvchi-yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish xizmatiga rahbarlik qiluvchi organ hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko'zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida ularning o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog'liqlariga mos bo'lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko'maklashadi.

Kasb tanlashda kasb-hunar tanlashga oid mustaqil fikrlashning shakllanganlik darajasi odam kasbni qanday tanlashiga, u jamiyat talablarini, shaxsiy xususiyatlar va qiziqishlarni qanchalik hisobga olishiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, kasbni ongli ravishda tanlash shaxsning muayyan "yetukligi"ni, xususan ma'lum umumiy ma'lumot darajasiga ega bo'lishni, mehnatga tayyorgarlik, ishlashga shaylik, kasb tanlashga qiziqish, mayllar, ijtimoiy jihatdan qimmatli bo'lgan sabablar, o'z qobiliyatlariga o'zi to'g'ri baho berish va shu kabilarning mavjudligini ko'zda tutadi. Shuning uchun o'quvchining kasb tanlashdagi o'z imkoniyatlarini o'zi belgilashi muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida o'quvchi kasbni o'zi mustaqil tanlashi amalga oshishi kutiladi. Shundagina har bir insonning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari to'liq ochilishiga erishiladi.

O'zbek ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi va uning ijtimoiy roli falsafiy-pedagogik jihatdan keng ochib berilgan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, ularning hamkorligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi, bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, bolalarning g'ayrat va shijoatiga, sa'y-harakatlariga, xohish-intilishlariga bog'liq bo'ladi.

Ota-ona, yaqin qarindoshlar hech qachon o'quvchiga yomonlikni ravo ko'rmaydilar. Ular o'quvchiga o'zi va oilasini boquvchi kasb tanlashiga yordam berishga doim tayyorlar. Biroq, yaqin insonlar maslahat bera turib o'zlarining shaxsiy tajribalariga suyanadilar. Har bir o'quvchi esa o'ziga xos inson, boshqa davrda tarbiyalangan va u boshqa davrda yashaydi. Aksariyat yoshlar ota-onalari, tanishlari, ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar asosida biron kasbni tanlaydilar. Ota-onalar, do'stlar, tanishlar, radio va televideniedagi ko'rsatuv va ma'lumotlar asosida biron kasbni tanlashning o'ziga yarasha kamchiligi bor. U ham bo'lsa hali sinab ko'rilmagan biron faoliyatni boshqalarning tavsiyasi asosida tanlashdir. Bu yerda ikki shaxs qatnashyapti: tanlovchi va yordamchi. Tanlovchi yordamchidan yordam so'raydi.

Yordamchi o‘zining tajribasidan kelib chiqib maslahat beradi. U yoki o‘zining kasbini egallashni yoki umuman ushbu kasbga yaqinlashmaslikni maslahat beradi.

O‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida bola tarbiyasi va uning ijtimoiy roli falsafiy-pedagogik jihatdan keng ochib berilgan. Alloma tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, ularning hamkorligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, barkamol shaxsning ko‘p qirrali bilimlarga ega bo‘lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi, bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bolalarning g‘ayrat va shijoatiga, sa’y-harakatlariga, xohish-intilishlariga bog‘liq bo‘ladi. Muallif “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida, jumladan, quyidagicha fikr yuritadi: “Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lub xorlikda qolurlar. Kishi yosh vaqtida ilm va ma’rifat, hunar va san’atga mehr qo‘ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo‘lib qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo‘lmagan xizmatlarni qilmak ayb emasdur. Agar bunga ham bo‘yin qo‘ymay bu ko‘murchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo‘r ayb, g‘ayratsizlikdur”, deb aytadi

Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo‘lgan yoshdan boshlanadi. Chunki, bola dunyo haqidagi tasavvurlari 70 foizini besh yoshgacha oladi. Har bir ota-ona farzandining baxtli, mustaqil va muvaffaqiyatli bo‘lishini istaydi. Ammo bu maqsadga faqat maktabdagi baholar yoki diplomlar bilan erishib bo‘lmaydi. Bolaning bilimga qo‘shimcha ravishda hayotiy ko‘nikmalari bo‘lishi kerak. Bugungi kunda farzandni hayotga tayyorlash - bu uni kelajakka tayyorlash demakdir. Ana shu paytdan e’tiboran bolalarni bo‘lg‘usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o‘rganish zarur.

Kasb tanlash haqida maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis (maktab psixologi, bandlikka ko‘maklashish xizmati xodimi) yoki sizni juda yaxshi biluvchi va o‘z shaxsiy tajribasida ma’lum kasblar guruhi bilan tanish inson jo‘yali maslahat berishi mumkin. Ayrim o‘quvchilar maktabda faoliyat ko‘rsatayotgan kasbga yo‘naltiruvchi psixolog, pedagog mutaxassislarning ko‘p yillik o‘rganishlari asosida kasb tanlaydilar. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining shaxsi juda katta rol o‘ynaydi. O‘qituvchi shaxsi – muallimning ijodiy rivojlanishi, uning yuksak pedagogi mahorati, ishda doimiy novatorligi, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Shunday muallim 79 o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug‘diradi, o‘ziga o‘xshash bo‘lish, u bilan do‘stlashish, eng ezgu istaklar, istiqbol to‘g‘risidagi, o‘z kasbi haqidagi orzularini baham ko‘rish ishtiyoqini yaratadi. Aytish mumkinki, kasbga yo‘naltiruvchi psixolog, pedagog mutaxassislarning tavsiyalari asosida kasb tanlash ancha samarali. Bunda

o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlari e‘tiborga olinadi. Bu holda o‘quvchiga mos kasbni topish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi.

Xulosa

Demak o‘smirlar shaxsida namoyon bo‘luvchi ana shunday sifatlarga tayangan holda ular o‘rtasida kasb-hunarga yo‘naltirishni to‘g‘ri tashkil etish, ushbu jarayonda esa ustoz – shogird an‘analariga tayanish oila, mahalla, ta‘lim muassasasi hamkorligi asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish so‘z yuritilayotgan muammoning ijobiy yechimini topishga asos bo‘ladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirishga doir nazariy bilimlarni targ‘ib etish, yuqorida qayd etilgan psixologik xususiyatlarga tayangan holda ish ko‘rish ana shu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Bundan tashqari, mazkur ishga mas‘ul etib belgilangan shaxslarning yetarli darajada psixologik-pedagogik bilim va mahoratga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda pedagoglar dastlab ularning shaxsiy imkoniyatlari, psixologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rganish orqali oila, mahalla, ta‘lim muassasasi hamkorligiga tayangan holda faoliyat yuritadi.

Aynan katta yoshdagilar, oila a‘zolari, tengdoshlari, o‘qituvchilar, sinf rahbarlari va boshqalarning qarashlari; shaxsning kasbiy va hayotiy rejalari; shaxsiy qobiliyat va layoqatlari; jamiyatdagi mavqe‘larga intiluvchanlik va shu kabi bir qator omillar o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari kasb-hunarni nufuzi yoki daromadiga ko‘ra tanlash, o‘quv predmeti va kasbni teng qo‘yish, ma‘lum kasb egasiga bo‘lgan munosabatni kasbga nisbatan his qilish, “Do‘stlarga ergashib” kasb tanlash, kasb tanlashni ta‘lim olish darajasi yoki qaerda ta‘lim olishga qarab belgilash, o‘zining qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olmaslik, kasb tanlashda layoqatsiz insonlar fikriga quloq solish, sulolaviy yondashuv asosida kasb tanlash, tasodifiy sabablar ta‘siri ostida kasb tanlash, mehnat tavsifi to‘g‘risida eskirgan tasavvurga egalik kabi bir qator omillar ham misollar bilan ko‘rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-t. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 440 b.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Jo‘raev R.X.. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishining muammolari. “O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishining 142 muammolari” ilmiy-amaliy konferensiya ma‘ruzasi. – T.: Maktab va hayot. 2002. – 32 b.
4. Inoyatov U.I. Umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashning ilmiy-amaliy asoslari/ Maktab va hayot. T.: 2013. №7–B.2-4.